Fanlar akademiyasi birinchi vitse-prezidenti - bosh ilmiy kotibi lavozimiga akademik Shomansur Sagdullayev saylandi

Bugun, 23-may kuni FA umumiy yig’ilishida Fanlar akademiyasi **birinchi vitse-prezidenti - bosh ilmiy kotibi lavozimiga akademik Shomansur Sagdullayev** saylandi.

Shuningdek, yig’ilishda Fanlar akademiyasining yangilangan Ustavi ham ma’qullandi.

Ma’lumot o’rnida:

Akademik Sh.Sagdullayev O’simliklardan dorivor moddalar olish texnologiyasini yaratish va ishlab chiqarishga tadbiq etish sohasida yirik texnolog-olim.

Olimning ilmiy faoliyati dorivor o’simliklardagi alkaloidlar, izoprenoidlar kabi biologik faollikka ega bir qator gidrofil va lipofil xususiyatli moddalarni ekstraktsiyalash hamda fraktsiyalash, o’simlik hom ashyosini kompleks qayta ishlashning texnologik sxemalarini yaratish, mavjud texnologiyalarni takomillashtirish kabi maqsadlarga yo’naltirilgan tadqiqotlardan tashkil topgan.

Uning rahbarligida Allapinin dori vositasini ishlatish uchun Rossiya patenti olingan va “Allapinin” tovar belgisi Rossiya Federatsiyasida qayd etilgan, ushbu dori bilan Respublika ehtiyojini qondirishdan tashqari uni Rossiyaga eksport qilish yo’lga qo’yilgan.

U 300 dan ortiq ilmiy maqolalar, 5 ta monografiya, 57 ta patent, 20 ta texnologik, tajriba-texnologik, sanoat miqyosidagi reglamentlar, 35 dan ortiq farmakopeya va vaqtinchalik farmakopeyalar muallifi.

Uning rahbarligida 15 dan ortiq PhD va fan doktorlari tayyorlangan.

Uning tashabbusi bilan O’zbekiston Respublikasida birinchi marta o’simliklardan biologik faol moddalar ajratib olishning yangi usuli-superkritik va ulьtratovush yordamida ekstraktsiya qilishning zamonaviy, yuqori samarador texnologiyalari joriy etildi, yangi texnologik sxemalar asosida tibbiyot amaliyotiga 20 dan ortiq dorivor fitopreparatlar, biologik faol qo’shimchalar tadbiq etildi.

“Shuhrat” medali, O’zbekiston Respublikasi fan va texnika sohasida davlat mukofoti, “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni va “O’zbekiston Respublikasi fan arbobi” faxriy unvoni bilan mukofotlangan.